



**6-SINFLARDA “NAFAS SISTEMASI” MAVZUSINI O’QITISHDA
KREATIV METODLARDAN FOYDALANGAN HOLDA KOMMUNIKATIV
KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISH.**

Davronova Yulduz Xolmurzo qizi

Navoiy davlat universiteti

Tabiiy fanlar va tibbiyot fakulteti Biologiya kafedrası

Biologiya 1-kurs magistranti

ANNOTATSIYA: Mazkur tezisdá 6-sinf tabiiy fanlar darslarida “Nafas sistemasi” mavzusini o’qitishda kreativ metodlardan samarali foydalanish orqali o’quvchilarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish masalalari yoritilgan. Tadqiqotda zamonaviy ta’lim talablari asosida o’quvchilarning fikrini og’zaki va yozma ravishda ifodalash, biologik terminlardan to’g’ri foydalanish, jamoada ishlash va muloqotga kirishish ko’nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodlar tahlil qilingan. Har bir aytilgan kreativ metodning “Nafas sistemasi” mavzusida qo’llanilishi, o’quvchilarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishdagi o’rni ochib berilgan.

KALIT SO’ZLAR: Nafas sistemasi, kreativ metodlar, kommunikativ kompetensiya, tabiiy fanlar darsi, interfaol ta’lim, rolli o’yin, klister, jigsaw, aqliy hujum.

ANNOTATION: This thesis discusses the issues of forming communicative competence in students through the effective use of creative methods in teaching the topic “Respiratory System” in 6th grade natural science lessons. The study analyzed methods that serve to develop students' oral and written expression of their thoughts, the correct use of biological terms, teamwork and communication skills based on modern educational requirements. The application of each of the mentioned creative methods in the topic “Respiratory System” and its role in the formation of communicative competence in students are revealed.

KEYWORDS: Respiratory system, creative methods, communicative competence, natural science lesson, interactive education, role-playing game, clister, jigsaw, brainstorming.

KIRISH

Bugungi kunda maktablarda fanlarni o’qitishda nafaqat bilim berish, balki o’quvchilarda muhim tayanch kompetensiyalarni shakllantirish ustuvor vazifa hisoblanadi. Jumladan, kommunikativ kompetensiya o’quvching fikrini aniq ifodalash, muloqotga kirishish, jamoa ichida o’z nuqtayi nazarini asoslab bera olish, savol-javoblarda faol ishtirok etish kabi ko’nikmalarni o’z ichiga oladi.





Tabiiy fanlar darsida, xususan, 6-sinflarda o'tiladigan "Nafas sistemasi" mavzusi o'quvchilarning kundalik hayoti bilan bevosifa bog'liq bo'lib, ushbu mavzuni o'qitishda kreativ metodlardan foydalanish katta ahamiyatga ega. Chunki nafas olish jarayoni, nafas organlarining tuzilishi va ularning funksiyalari haqida o'quvchilar nafaqat eshitib, balki muhokama qilish, tushuntirish va tasvirlash orqali bilimlarini mustahkamlaydilar.

Shu bois bu tezisda "Nafas sistemasi" mavzusini o'qitishda kreativ metodlardan foydalanish orqali o'quvchilarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish masalalari ko'rib chiqiladi.

ASOSIY QISM

Kommunikativ kompetensiya-bu o'quvchining og'zaki va yozma nutqida fikrini ravon ifodalash, boshqalar bilan faol muloqot qilish, jamoa ichida o'z fikrini bemalol, qo'rqmasdan aytish, savol berish, savollarga javob qaytarish umuman olganda jamoada ishlash qobiliyatidir. Tabiiy fanlar darslari davomida kommunikativ kompetensiyani shakllantirish orqali o'quvchilar darslarda: biologik terminlardan to'g'ri foydalanishni, hodisalarni izchil tushuntirishni, guruhda ishlash va fikr almashishni, bahs munozaralarda faol ishtirik etishni o'rganadilar. "Nafas sistemasi" mavzusi bu borada juda qulay bo'lib, o'quvchilar nafas olish jarayonini tasvirlash, organlarning vazifalarini tushuntirish va o'z fikrlarini misollar orqali bayon qilish imkoniyatiga ega bo'adilar.

Quyida "Nafas sistemasi" mavzusini o'qitishda kreativ metodlardan foydalanildi:

1. "Aqliy hujum" metodi-ushbu metod asosan darsning kirish qismida qo'llaniladi. O'qituvchi o'quvchilarda quyidagi savollarni beradi:

- . Nima uchun inson nafas oladi?
- . Nafas olmasdan qancha vaqt yasash mumkin?
- . Nafas olish qaysi organlar orqali amalga oshadi?

O'quvchilar o'z fikrlarini erkin bayon qiladilar. Bu jarayonda: og'zaki nutq rivojlanadi, o'quvchilar fikr bildirishdan cho'chimaydi, kommunikativ faollik oshadi. Natijada, o'quvchilarda biologik tushunchalarni ifodalash va o'z fikrlarini qo'rqmasdan muloqot orqali ifodalash ko'nikmalari shakllanadi.

2. "Jigsaw" metodi- bu metod o'quvchilarni kichik guruhlarda ishlashga, o'zaro muloqot qilishga va o'rganilgan ma'lumotlarni boshqalarga tushuntirishga yo'naltirilgan interfaol metod hisoblanadi. Dars jarayonida sinf bir necha kichik guruhlariga bo'linadi. Har bir guruh a'zolariga nafas sistemasining alohida qismlari taqsimlanadi. Masalan:

- 1-guruh_- burun bo'shlig'i va uning vazifalari
- 2-guruh- hiqildoq va traxeya
- 3-guruh- bronxlar
- 4-guruh- o'pkada gazlar almashinuvi



Keyinchalik bir xil mavzuni olgan o'quvchilar "mutaxassislar guruhi"ga yig'ilib, o'z bo'limlari bo'yicha ma'lumotlarni chuqur o'rganadilar, muhokama qiladilar va asosiy tushunchalarni aniqlab oladilar. Songra har bir o'quvchi o'zining kichik guruhiga qaytib, o'rganilgan ma'lumotni og'zaki tushuntirib beradi. Mazkur metodni qo'llash jarayonida o'quvchilar: biologik terminlardan to'g'ri foydalanishni, fikrni izchil va ravon ifodalashni, savol berish va savolga javob qaytarishni, jamoada ishlash va o'zaro muloqot qilishni o'rganadilar.

Natijada "Jigsaw" metodi o'quvchilarda kommunikativ kompetensiyaning barcha tarkibiy qismlarini- tinglash, tushunish, muloqot qilish, hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini shakllantiradi. Shu bilan birga, dars jarayonida har bir o'quvchi faol ishtirokchi bo'lib, o'z bilimini boshqalarga yetkazish mas'uliyatini his etadi.

3. "Rolli o'yin" metodi- mazkur metod ayniqsa samarali bo'lib, o'quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi. Masalan, har bir o'quvchi nafas sistemasining biror qismi rolini bajaradi:

- . biri burun bo'shlig'i
- . biri o'pka
- . biri bronx
- . biri alveola rolida chiqish qiladi.

Har bir o'quvchi o'z rolini og'zaki tushuntirib beradi. Bu jarayonda: o'quvchilarda biologik terminlarni to'g'ri ishlatish, nutq ravonligi, sahna madaniyati va o'ziga ishonch shakllanadi. Rolli o'yin metodi kommunikativ kompetensiyaning shakllantirishda eng samarali kreativ metodlardan biridir.

4. "Klaster" metodi- "Nafas sistemasi" mavzusini mustahkamlashda ushbu metoddan foydalanish ayniqsa samaralidir. Doskaga "Nafas sistemasi" deb yozilib, undan quyidagi tushunchalar chiqariladi:

- . burun bo'shlig'i
- . halqum
- . hiqildoq
- . traxeya
- . bronxlar
- . o'pka

O'quvchilar guruhda ishlab, har bir organ vazifasini izohlaydilar. Bu metod orqali: o'quvchilar jamoada muloqot qiladi, tushunchalar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlab, tushuntiradi., nutq madaniyati rivojlanadi. Bular esa kommunikativ kompetensiyaning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Kreativ metodlarning kommunikativ kompetensiyaning shakllantirishdagi o'rni juda yuqoridir. Yuqorida keltirilgan metodlar orqali o'quvchilarda kommunikativ kompetensiyaga oid quyidagi ko'nikmalar shakllanadi:

- . fikrni og'zaki ravishda aniq bayon qilish
- . biologik terminlardan to'g'ri foydalanish



- . jamoada ishlash va muloqot qilish
- . savol javoblarda ishtirok etish.bu esa davlat ta'lim standartlarida belgilangan tayanch kompetensiyalarga to'liq mos keladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, 6-sinflarda “Nafas sistamasi” mavzusini o'qitishda kreativ metodlardan foydalanish o'quvchilarning nafaqat biologik bilimlarini mustahkamlaydi, balki ularning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Aqliy hujum, jigsaw, rolly o'yin, klaster kabi metodlar orqali o'quvchi faol fikrlaydi, muloqotga kirishadi va o'zining bilimlarini erkin ifodalashni o'rganadi. Ushbu yondashuv tabiiy fanlar darslarini samaradorlogini oshirish bilan birga, zamonaviy ta'lim talablariga to'liq javob beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi vazirligi- “umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti”
2. Qorayev S.B –“Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim”
3. Sayidahmedov N.S- “Zamonaviy pedagogik texnologiyalar” Toshkent 2017
4. Tolipova J.O “Biologiyani o'qitishda pedagogic texnologiyalar” Toshkent 2011
5. Jasvinder K, Randhava, Natasha M- “Tabiiy fanlar” 6-sinf Toshkent 2024.